



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 7-may, № 91 (9262)

Payshanba

Saytimgiza o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI SERBIYA DELEGATSIYASINI QABUL QILDI



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 6-may kuni tashrif bilan
mamlakatimizga kelgan Serbiya Respublikasi
tashqi ishlar vaziri Marko Jurichni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Serbiya Prezidenti Aleksandr Vuchichning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni 2025-yil oktabr oyida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada mustahkamlash istiqbollari ko'rib chiqildi.

Hukumatlar, parlamentlar, ishbiarmon doiralari darajasidagi muloqotlar faollashgani, gumanitar almashinuv kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash hajmini oshirish, mashinasozlik, farmatsevtika, kimyo sanoati, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa ko'plab muhim tarmoqlarda keng ko'lami kooperatsiya dasturini tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Hamkorlikning iqtisodiy kun tartibini ilgari surish maqsadida joriy yilda Belgrad shahrida Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishini o'tkazishga kelishib olindi.

Uyushgan mehnat migratsiyasi, madaniyat va ta'lim sohasidagi sheriklik masalalari ko'rib chiqildi.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasini muhokama qildilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Marbutat xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI XITOIY RAHBARIGA HAMDARDLIK BILDIRD

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev Xunan
provinsiyasidagi sanoat korxonasida
yuz bergan fojia oqibatida ko'plab
insonlar qurbon bo'lgani va jiddiy
jarohat olgani munosabati bilan Xitoy
Xalq Respublikasi Raisi Si Szingpinga
hamdardlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari vafot etganlarning oila a'zolari va yaqinlariga sabr-toqat va bardamlik so'zlarini yo'llab, jarohatlanganlar tez fursatda shifo topishini tiladi.

JAHOI SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIH JARAYONI JADALLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev
O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga
a'zo bo'lishi borasida 2025-yilda amalga
oshirilgan ishlar va ushbu jarayonni
jadallashtirish bo'yicha 2026-yildagi
vazifalarga bag'ishlangan taqdimot
bilan tanishdi.

O'tgan yilda O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni doirasida ko'p va ikki tomonlama muzokaralarda salmoqli natijalarga erishildi.

Xususan, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi bo'yicha ishchi guruhning ikkita yig'ilishi o'tkazildi. Ularda 200 dan ortiq savollarga javoblar, 30 dan ziyod tashqi savdoga oid hujjatlar JST a'zolariga taqdim etildi.

Shu bilan birga, ikki tomonlama tadbirlar doirasida 40 dan ortiq muzokaralar raundi olib borildi. 2025-yilning o'zida 11 ta davlat bilan muzokaralar yakunlanib, bunday davlatlarning umumiy soni 33 taga yetdi.

JST a'zolari tomonidan O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq jadal islohotlar amalga oshirilayotgani ijobiy e'tirof etilmoqda. Xususan, o'tgan yilda 68 ta qonunchilik hujjati JST va xalqaro me'yorlariga uyg'unlashtirildi.

Jumladan, JST qoidalarga uyg'unlashtirish doirasida intellektual mulkni ro'yxatga olish jarayonlari soddalashtirilib, ushbu sohada huquqbuvarliklar uchun javobgarlik choralari kuchaytirildi, eksport cheklovlari bekor qilindi va shaffof mexanizmga ega eksport bojlari joriy etildi, ayrim mahsulotlar uchun minimal eksport narxlarini belgilash amaliyoti bekor qilindi ta'kidlandi.

Shuningdek, savdodagi texnik to'siqlarni qisqartirish, sanitariya va fitosanitariya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida xavf darajasi yuqori bo'lgan mahsulotlarni majburiy davlat ro'yxatidan o'tkazishning byurokratik tartibi o'rniqa sertifikatlashtirish joriy etildi, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi ustidan nazorat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasiga o'tkazildi va 14 ta oziq-ovqat texnik reglament bekor qilindi, 747 ta tovar pozitsiyasi bo'yicha majburiy sertifikatlashtirish talablari tugatildi va ro'yxat 27 foizga qisqartirildi.

Taqdimotda oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi va savdoni himoya qilish choralari to'g'risidagi yangi qonunlarni qabul qilish, sanitariya, veterinariya va karantin sohasiga xavfni tahlil qilish, kuzatuvchanlik hamda ilmiy asoslanganlik tartiblarini joriy etish holati ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari joriy yilda O'zbekistonning JSTga to'laqonli a'zoligini rasmiylashtirish bo'yicha kompleks ishlarni sifatlil amalga oshirish borasida ko'rsatmalar berdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi qonunchilikni JST qoidalari va xalqaro savdo standartlariga to'liq muvofiqlashtirish ishlarini tizimli davom ettirish, JSTga a'zo bo'lish bo'yicha ikki va ko'p tomonlama muzokaralarni yakunlash hamda a'zollikni rasmiylashtirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilab olindi.

O'ZA.

QURILISHDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN SA'Y-HARAKATLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida byurokrtiyanini qisqartirish va nazorat ishlari natijadorligini oshirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlar aholi uchun zamonaviy uy-joylar, ijtimoiy obyektlar va qulay infratuzilma yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, qurilayotgan yangi uy-joylar xavfsiz, sifatlil, ekologiya va shaharsozlik talablariga to'liq javob berishi zarur.

Taqdimotda sohada davlat xizmatlarini soddalashtirish, ruxsat berish jarayonlarida byurokrtiyanini kamaytirish, qurilish obyektlari ustidan nazoratni raqamlashtirish va inson omilini qisqartirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, hozirda qurilishni boshlash uchun ruxsat olishda jami 8 ta hujjat talab etiladi. Bu jarayon ayrim hollarda 3 oydan 12 oygacha cho'zilmoqda. Shu bois 2 ta hujjatni talab qilishni bekor qilish, yana 2 ta hujjatni esa raqamli integratsiya hisobiga shakllantirish taklif etildi. Natijada ariza berish va ko'rib chiqish uchun ketadigan vaqt 7 barobar qisqaradi, buyurtmachilarning ovoragarchiligi kamayadi.

Yangi tartibga ko'ra, loyihalashga ruxsatnoma va arxitektura-rejalashtirish topshirig'i berish jarayonlari yagona hujjatga birlashtiriladi. "ShaffofAI" tizimi orqali ushbu jarayon inson omilisiz, avtomatik tarzda amalga oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Buning natijasida 30 ish kunigacha davom etadigan jarayon to'liq avtomatlashtiriladi.

Loyiha-qidiruv, qurilish-pudrat va ekspertiza tashkilotlarini litsenziyalashda ham yangi tartib

joriy etiladi. Bugungi kunda ariza berishda 3 tadan 30 tagacha hujjatni ilova qilish talab etilib, qaror qabul qilish 14 ish kunigacha cho'zilmoqda. Taklif etilayotgan tizimda ma'lumotlar elektron bazalar orqali avtomatik tekshiriladi, hujjat ilova qilish talabi bekor qilinadi. Litsenziyani rasmiylashtirish muddati 14 ish kunidan 5 daqiqagacha qisqaradi, qaror qabul qilish jarayoni 97 foizga tezlashadi.

Qurilish obyektlarini foydalanishga qabul qilish jarayoni ham soddalashtiriladi. O'tgan yili bu borada berilgan 20 mingdan ortiq arizalar turli sabablar bilan rad etilgan. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun buyurtmachilar 1 oydan 3 oygacha vaqt sarflamoqda.

Endi davlat obyektlarini foydalanishga qabul qilishda talab etiladigan hujjatlar soni 3 tadan 1 taga qisqartirildi. Texnik hamda mualliflik nazoratchilari xulosalari, muvofiqlik deklaratsiyasi va boshqa ma'lumotlar raqamli tizimlar orqali shakllantiriladi. Bu esa obyektni qabul qilish muddatini 2 oydan 15 kungacha qisqartiradi.

Shu bilan birga, binoning mustahkamligi va yong'in xavfsizligiga ta'sir qilmaydigan arxitekturaviy yoki rejayiv o'zgarishlar sabab obyektni foydalanishga qabul qilishni rad etish amaliyoti qayta ko'rib chiqildi. Bunday holatlarda zarur korrekturalar kiritilib, obyektni qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Taqdimotda qurilish obyektlarini onlayn nazorat qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Amaliyotda qurilish obyektlariga

kuzatuv kameralarini majburiy o'rnatish talabi mavjud emas. Shu bois birinchi bosqichda qiymati 3 milliard so'mdan yuqori bo'lgan ijtimoiy soha obyektlari, ko'p qavatli uylar, yirik savdo va sanoat obyektlari, mehmonxona va turizm majmualariga kameralar o'rnatish taklif etildi.

Bu orqali loyihadan o'zboshimchalik bilan chetga chiqish holatlarini barvaqt aniqlash, qurilish maydonidagi ishchilar hisobini aniq yuritish, "konvert" usulida maosh to'lash holatlarining oldini olish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va mehnat xavfsizligini ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Qurilishda texnik va mualliflik nazorati samaradorligini oshirish masalasi ham ko'rib chiqildi.

2025-yilda texnik va mualliflik nazoratchilari obyektlarda 42 mingga kamchilikni qayd etgan bo'lsa, inspektorlar keyinchalik yana 250 mingdan ziyod qoidabuzarlikni aniqlagan. Bu ayrim hollarda nazoratchilar faoliyati yetarlicha samarali tashkil etilmayotganini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan "Shaffof qurilish" platformasida texnik va mualliflik nazoratchilarining reestri va reyting tizimini joriy etish taklif qilindi. Ularning faoliyati masofadan monitoring qilinadi, ish yurituv hujjatlari elektron shaklga o'tkaziladi. Reyting ko'rsatkichi past bo'lgan nazoratchilar qayta o'qitishga yuboriladi, yaxshi natija ko'rsatganlarning sertifikat muddati uzaytiriladi.

Qurilish materiallari sifatini nazorat qilishda ham ta'sirchan mexanizmlar

joriy etiladi. Obyektga kiritilgan har bir qurilish materiali "nazorat.mc.uz" platformasi orqali elektron ro'yxatga olinadi, sifatni tasdiqlovchi hujjatlar majburiy ravishda tizimga yuklanadi. Sifatsez materiallardan foydalangan quruvchilarga nisbatan ma'muriy javobgarlik belgilash taklif etildi.

Laboratoriya sinovlari bo'yicha ham yangi yondashuvlar belgilanmoqda. Uzoq hududlardagi qurilish massivlarida sinovlarni o'z vaqtida o'tkazish uchun ko'chma qurilish-sinov laboratoriyalarini tashkil etish taklif qilindi. Bu obyektlar qamrovini ikki barobar oshirish, sinov natijalarini tezkor aniqlash va standart talablariga rioya etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Taqdimotda noqonuniy qurilishlarning oldini olish masalasi ham atroflicha ko'rib chiqildi. 1-aprel holatiga respublika bo'yicha 3 791 ta noqonuniy qurilish obyekti aniqlangan. Shundan 1 933 tasi sanoat zonalarini hududiga to'g'ri keladi. Ayrim obyektlarda yerga bo'lgan huquq, loyihalashga ruxsatnoma, kengash yoki ekspertiza xulosalari mavjud emasligi aniqlangan.

Buning oldini olish uchun yerga oid huquq vujudga kelgan vaqtdan boshlab fuqarolar va yuridik shaxslarga qurilish sohasidagi qonun talablari bo'yicha elektron eslatmalar yuborish, "Onlayn mahalla" va "Shaffof qurilish" tizimlarini integratsiya qilish, qonunchilikdagi obyektlarni ruxsatnomasiz qurganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish taklif etildi.

Ko'p kvartirali uy-joy fondini

boshqarishda nazoratni kuchaytirish masalasi muhokama qilindi.

Qonunchilikda ko'p kvartirali uylardagi to'siq konstruksiyalarini o'zboshimchalik bilan buzgan shaxslarga ma'muriy choralarni tekzor ko'rish mexanizmi yetarli emas. 2023-yilda bunday holatlar 563 ta bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 2 484 taga yetgan.

Ayniqsa, ekspluatatsiya muddati 50 yildan oshgan uylarda o'zboshimchalik bilan rekonstruksiya qilish xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Mamlakatimizda bunday ko'p kvartirali uylar 15 ming 270 tani tashkil etadi. Shu bois ularda toifani o'zgartirish va rekonstruksiya qilishni cheklash, to'siq konstruksiyalarni buzganlik uchun to'g'ridan-to'g'ri jarima qo'llash vakolatini inspeksiyaiga berish taklif etildi.

Kadrlar salohiyatini oshirish masalasi ham e'tibor markazida bo'ldi. Toshkent, Namangan va Qarshi shaharlaridagi oliygohlarda Avstriyaning Vena va Italiyaning Sapiensa universitetlari bilan qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish, istiqbolli kadrlarni rivojlangan davlatlarga stajirovkaga yuborish va ularning yangi bilim-ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tizim yaratish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz sohadaagi yangiliklar amaliyot bilan uzviy bog'langan bo'lishi zarurligini ta'kidlab, hududiy studiyalardagi sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning fikrlarini tingladi. Takliflarni ma'qullab, mustahkamlashga tegishli topshiriqlar berdi.

Muloqot

O'ZARO ALOQALARNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMADA

Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev Xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik bo'yicha Xitoy xalq jamiyati raisi Yan Vanmin boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat chog'ida ular O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanib borayotganini qayd etdi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish muhimligi, o'zaro aloqalarni mustahkamlashda parlament va xalq diplomatiyasining o'rne aytib o'tildi.

Hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhlar ishini faollashtirish, parlament qo'mitalari o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish, qonun ijodkorligi va parlament nazorati sohasida tajriba almashishni tizimli davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik istiqbollari bo'yicha fikr almashildi. Hududlar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni faollashtirishga ko'maklashish, bu borada joriy yil davomida o'tkaziladigan tadbirlar rejasi muhokama qilindi.

Shuningdek, turizm, ta'lim va ilmiy-akademik yo'nalishda almashinuvni rivojlantirishga qaratilgan qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

MUSTAQILLIK VA TINCHLIKNI ASRASH, TARIXIY XOTIRANI ULUG'LASH – MUQADDAS BURCH

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Yangi O'zbekistonning harbiy salohiyatini mustahkamlash hamda tarixiy xotirani ulug'lash: islohotlar va ustuvor vazifalar" mavzuida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi hamda 9-may – Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan tashkil etilgan tadbirda deputatlar, Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari hamda Milliy gvardiya mas'ul rahbarlari, harbiy faxriylar, harbiy oliy ta'lim muassasalari kursantlari va jurnalistlar qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda harbiy

qurilish sohasini tubdan isloh qilish, mudofaa qobiliyatini oshirish, Qurolli Kuchlarimizni zamon talablari asosida rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aйлandi.

Ushbu vazifalar asosida Qonunchilik palatasi tomonidan sohani barqaror va samarali rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida uning mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda izchil takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ISHONCH, INVESTITSIYA VA TARAQQIYOT

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan murakkab va tezkor o'zgarishlar sharoitida xalqaro moliya institutlarining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Aks sado

Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarni qo'llab-quvvatlash, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, kambag'allikni qisqartirish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashda Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli tashkilotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu bank nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki ilg'or tajriba, innovatsion yechimlar va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'ziga xos intellektual maydon sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar

kengashining yillik yig'ilishi esa global iqtisodiy jarayonlar muhokama qilindanigan, ustuvor yo'nalishlar belgilab olinadigan muhim xalqaro anjumanlardan biri hisoblanadi. Ana shunday nufuzli tadbirning Samarqand shahrida o'tkazilishi O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi va ochiq, pragmatik tashqi siyosatining amaliy natijasini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti mutlaqo yangi taraqqiyot bosqichini boshdan kechiryapti.

Parlament nazorati

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASH ISHLARI OʻRGANILDI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov boshchiligidagi ishchi guruh Toshkent shahrining Yashnobod tumanida jamoat xavfsizligini taʼminlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, aholi bilan manzilli ishlash hamda profilaktika chora-tadbirlari ijro etilishining holatini oʻrgandi.

Jumladan, tumandagi "qizil" toifaga kiritilgan mahallalarda jinoyatchilik holati, sabab va omillari, profilaktika inspektorlari va mas'ul idoralar tomonidan olib borilayotgan ishlar tahlil qilindi. Aholi bilan muloqotlar o'tkazilib, ularni qiynayotgan muammo va takliflarga e'tibor qaratildi.

Prezidentimizning "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga

qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash masalalariga alohida urg'u berildi.

Shuningdek, ushbu masala xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashining navbatdagi sessiyasida muhokama qilindi.

Muhokama jarayonida jinoyatchilikni kamaytirish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktika ishlari samaradorligini oshirish hamda mahallalarda

xavfsiz muhitni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosi holati ko'rib chiqildi.

Shu bilan birga joylardagi vaziyatni o'rganish, aniqlangan muammolarni tegishli tashkilotlar bilan birgalikda hal etishga ko'maklashish, shuningdek, parlament nazorati doirasida amalga oshirilayotgan ishlarga ham e'tibor qaratildi.

Yakunda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar bildirildi.

Qo'shma majlis

PEDAGOG XODIMLAR MALAKASI QANDAY OSHIRILMOQDA?

Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining qo'shma majlisida viloyatdagi davlat umumta'lim maktablaridagi rahbar va pedagog xodimlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash bo'yicha belgilangan vazifalarning bajarilishi, jumladan, umumta'lim maktablari rahbarlari uchun tashkil etilgan menejerlik kurslarini o'rganish natijalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda so'nggi yillarda maktabgacha va maktab ta'limi tizimida keng qamrovli islohotlar o'tkazilmoqda. Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari rahbar, pedagog va mutaxassis kadrlarining 5 yilda bir marta bevosita malaka oshirishini ko'zda tutuvchi tizim joriy qilgan.

Viloyatda 2025-yil yanvar – dekabr oylarida umumta'lim tashkilotlarining 125 245 nafar xodimining malakasi oshirilgan.

Senatorlar mazkur sohada uchrayotgan ayrim kamchiliklarga ham to'xtalib o'tdi. Jumladan, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasidan ("onlinedu.uz") faqat malaka oshirish o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda.

Shuningdek, uch yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan ayollar, pensiya yoshidagilar hamda nogironligi bo'lgan pedagog va mutaxassis xodimlar elektron platforma orqali mustaqil malaka oshirishi imkoniyati joriy etilgan bo'lsa-da, mazkur amaliyot bugungi kunda cheklab qo'yilgan.

Umumta'lim maktabi direktorlarining faoliyatiga yakuniy baho berishda ularning sohadagi ko'p yillik samarali mehnati natijalari, maktab o'quvchilari hamda pedagoglari turli yutuqlarga erishgan inobatga olinmasligi maktab rahbarlarining haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Menejerlik sertifikatini qo'lga kiritgan



davlat umumta'lim maktablari direktorlarining keyingi faoliyatini monitoring qilish tizimi mavjud emas, ya'ni menejerlik o'quv kurslarini yakunlagan maktab direktorlari faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlarni baholashning mexanizmi yaratilmagan.

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi vakillariga pedagog xodimlarning malakasini oshirish hamda rahbar kadrlar uchun tashkil etiladigan menejerlik o'quv kurslarini o'qitish, yakuniy baholash tizimini tubdan takomillashtirish va sertifikatga ega bo'lgan rahbar xodimlarning keyingi mehnat faoliyatini monitoring qilish hamda samaradorligini baholash mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Majlis yakunida umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari malakasini oshirishni takomillashtirishga qaratilgan qo'shma qaror qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Ikkinchi jahon urushi tarixi:

YANGI TADQIQOTLAR VA ILMIY YONDASHUVLAR

G'alaba bog'di "Ikkinchi jahon urushi: yangi tadqiqotlar va tarixiy ma'lumotlar" mavzuida konferensiya bo'lib o'tdi. Unda senatorlar, Oliy Majlis Senati qo'mitasi huzuridagi ekspertlar, soha olimlari, oliy harbiy va oliy o'quv yurtlari kursant hamda talabalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Konferensiya

Konferensiyada so'zga chiqqan Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston xalqining fashizmga qarshi kurashdagi munosib hisssasi, jasorat va fidoyiligini alohida ta'kidladi. Shuningdek, u yaqinlashib kelayotgan 9-may – Xotira va Qadrlash kuni hamda

G'alabaning 81 yilligi munosabati bilan barcha ishtirokchilarni tabriklab, urush qurbonlari xotirasiga hurmat bajo keltirish har bir avlodning muqaddas burchi ekanini qayd etdi.

Ma'lum qilinganidek, so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Ikkinchi jahon urushida qatnashgan o'zbekistonliklar soniga oid yangi ma'lumotlar aniqlandi.

Jumladan, frontga safarbar etilganlar soni 1 mln. 951 ming nafarni tashkil etgani, bu esa o'sha davrdagi aholining qariyb uchdan bir qismi ekanini ta'kidlandi. Shu bilan birga, halok bo'lganlar soni 538 mingdan ziyod, bedarak yo'qolganlar esa 158 ming nafardan ortiq ekanini aytiladi.

Urush qatnashchilari va front orti mehnat faxriylarining jasoratini abadiylashtirish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, tarixiy xotirani asrash masalalari muhokama qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilgan G'alaba bog'i va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bu yo'nalishda muhim ahamiyat kasb etayotganiga urg'u berildi.

Tadbir doirasida, shuningdek, Italiyada nashr qilingan "IL Contributo del popolo Dell' Uzbekistan alla vittoria nella seconda guerra mondiale" ("O'zbekiston xalqining Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hisssasi") kitob-albominiy taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Konferensiya yakunida ishtirokchilar Ikkinchi jahon urushi tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish, arxiv materiallarini chuqur o'rganish hamda jamoatchilikka yetkazish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqdi.

"Xalq so'zi".

SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI: IMKONIYAT VA IMTIYOZLAR

Prezidentimizning shu yil 5-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni tibbiyot sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat bo'ldi.

Fikr

Mazkur farmon sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, boshqaruvni samarali tashkil etish va aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy ko'mak sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Binobarin, hujjatda sog'liqni saqlash tizimida markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechilib, hududiy darajada mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa joylardagi muammolarni tezkor hal etish, resurslarni maqsadli taqsimlash va aholining ehtiyojlariga mos xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Boshqaruv jarayonlarida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish orqali esa tizimning ishlash tezligi va samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan. Bu

kabi chora-tadbirlar amaliyotda tibbiyot muassasalari faoliyatini yanada erkin va samarali qiladi.

Farmonda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish masalasi ham ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Elektron tibbiy kartalar, yagona axborot tizimlari va onlayn monitoring platformalarini joriy qilish orqali esa ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanadi. Bu nafaqat boshqaruv qarorlarini qabul qilishni yengillashtiradi, balki korrupsiya xavfini kamaytirish, moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Raqamlashtirish orqali bemorlar uchun ham qulayliklar oshadi, vaqt tejali, xizmat ko'rsatish jarayoni tezlashadi.



Zebiniso RAHMONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Oliy sud Jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati apellyatsiya instansiyasining mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan 161 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmlari e'lon qilindi.

MUSTAQILLIK VA TINCHLIKNI ASRASH, TARIXIY XOTIRANI ULUG'LASH – MUQADDAS BURCH



Sohaning strategik rivojlanishini belgilab bergan eng muhim hujjatlar sifatida Mudofaa doktrinasini, "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida", "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida", "Qurol to'g'risida", "Favqulodda holat to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida", "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida", "Davlat mudofaa buyurtmasi to'g'risida" va boshqa qator qonunlar qabul qilindi.

Mazkur qonunlar mamlakatimiz mudofaasi va xavfsizligini, davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoyalash, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, har qanday xavf-xatarlarga tezkor va munosib chora ko'rish uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Tadbirda bugungi kunda sohada yana qator strategik ahamiyatga ega qonun loyihalari parlamentda ko'rib chiqilayotgani ta'kidlandi. "Harbiy

xizmatchilarning (xodimlarning) va ular oila a'zolarining davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Harbiy xizmatchilar maqomi va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida", "Faxriylar to'g'risida", "Safarbarlik tayyorgarligi va safarbarlik to'g'risida"gi qonun hujjatlari shular jumlasidan. Ushbu hujjatlar harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xizmat maqomini huquqiy jihatdan mustahkamlash hamda davlatning mudofaa salohiyatini yanada oshirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Kozim TOJIYEV,
Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi a'zosi:

– Qonunchilik palatasi tomonidan sohadagi qonunlarni takomillashtirish, ularning ijrosini tizimli o'rganish, mas'ul vazirlik va idoralar faoliyati ustidan parlament nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu tadbirda ham mudofaa va xavfsizlik sohasida erishilgan natijalarni



mustahkamlash bilan birga mavjud huquqiy mexanizmlarni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, qonun ijodkorligini faollashtirish hamda parlament bilan mas'ul idoralar o'rtasida yaqin hamkorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ilgari surildi.

Tadbirda, shuningdek, davlatimiz rahbarining "9-may – Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tildi. Qayd etilganidek, unda inson qadriini ulug'lash, Ikkinchi jahon urushi hamda mustaqillik yillarida Vatan himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan yurtdoshlar xotirasini e'zozlash, shuningdek, bugungi faxriylarga katta e'tibor va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan qator choralar belgilangan.

Dilbar MAMAJONOVA,

qo'mita a'zosi:

– Darhaqiqat, bugun amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash juda muhim. Albatta, bu masala deputatlarning doimiy diqqat markazida. Har bir qabul qilinayotgan qonun zaminida Vatanimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, tinchlikni qafolatli mujassam.

So'zga chiqqan soha faxriylari o'zlarining ko'p yillik xizmat faoliyati, boy hayotiy tajribasi hamda Vatan himoyasi yo'lidagi mashaqqatli sinovlar haqida to'xtalib o'tdi. Nuroniyalar yosh avlod tarbiyasida milliy g'urur va fidoyilik tuyg'usi eng muhim omil ekanini ta'kidlab, bugungi tinch-osoyishta kunlarning qadriga yetish, harbiy qasamyodga sodiq qolish bo'yicha o'z tavsiyalarini berdi.

"Xalq so'zi".



ISHONCH, INVESTITSIYA VA TARAQQIYOT



So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida iqtisodiyotni erkinlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, global qiymat zanjirlariga faol integratsiyalashish bo'yicha katta yutuqlarga erishildi. Qisqa davrda mamlakatimizga 150 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb etildi, iqtisodiyot hajmi qariyb uch barobar o'sdi, eksport salohiyati sezilarli darajada oshdi. Eng muhimi, bu islohotlar inson manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, aholi daromadlari oshirildi va kambag'allik darajasi sezilarli qisqartirildi.

Ushbu jarayonlarda Osiyo taraqqiyot banki O'zbekistonning ishonchli strategik sherigi sifatida muhim o'rinni tutmoqda. Bank bilan hamkorlikda bugungi kunga qadar qariyb 16 milliard dollarlik yirik loyihalar amalga oshirildi. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya, qishloq infratuzilmasi va mintaqaviy hamkorlik yo'nalishlaridagi qo'shma dasturlar mamlakat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Yaqinda imzolangan 12 milliard dollarlik yangi hamkorlik dasturi esa bu munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Bugungi global sharoitda



iqti s o d i y o ' s i s h n i ta ' m i n l a s h fa q a t a n ' a n a v i y y o n d a s h u v l a r b i l a n c h e k l a n i b q o l m a s d a n , i n n o v a t s i y a v a t e x n o l o g i y a l a r g a t a y a n i s h n i t a l a b e t m o q d a . S h u n u q t a y i n a z a r d a n , s u n ' i y i n t e l l e k t v a r a q a m l i t e x n o l o g i y a l a r n i r i v o j l a n t i r i s h m a s a l a r i a l o h i d a a h a m i y a t g a e g a . M a m l a k a t i m i z d a b u b o r a d a k e n g k o ' l a m l i i s h l a r h a y o t g a t a t b i q e t i l i b , y u z l a b i n n o v a t s i o n l o y i h a l a r y o ' l g a q o ' y i l g a n . S h u b i l a n b i r g a , x a l q a r o h a m k o r l i k d o i r a s i d a m a z k u r s o h a d a q o ' s h m a d a s t u r l a r n i a m a l g a o s h i r i s h t a k l i f l a r i i l g a r i s u r i l m o q d a .

Energetika sohasida ham tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali "yashil" iqtisodiyotga o'tish bughuni kunning ustuvor vazifasiga aylangan. O'zbekistonda bu borada yirik loyihalar amalga oshirilib, "yashil" energiya ulushi izchil oshib bormoqda. Kelgusida bu ko'rsatkichni yanada oshirish va mintaqaviy energetik hamkorlikni kuchaytirish rejalashtirilgan.

Zamonaviy iqtisodiyotda

strategik ahamiyatga ega mineral resurslarni chuqur qayta ishlash masalasi ham alohida e'tibor markazida turibdi. O'zbekistonning boy tabiiy resurslari va ulardan samarali foydalanish siyosati sanoatni diversifikatsiya qilish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga keng yo'l ochmoqda.

Samarqandda o'tkazilayotgan mazkur anjumanda dunyoning 100 dan ortiq davlatlaridan minglab vakillar qatnashgani uning xalqaro ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu platforma doirasida ilgari surilgan tashabbuslar kelgusida aniq loyihalar va amaliy natijalarga aylanishi shubhasiz.

Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining ushbu yig'ilishi nafaqat xalqaro moliyaviy sheriklikni mustahkamlash, balki Yangi O'zbekistonning ochiq va innovatsion taraqqiyotga yo'naltirilgan siyosati natijalarini namoyon etuvchi muhim voqeadir. Eng muhimi, bu hamkorlik mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inson kapitali salohiyatini oshirish va kelajak taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

Odiqjon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

XALQIMIZ FAROVONLIGIGA YO'NALTIRILGAN HAMKORLIK DASTURI

Ko'hna va navqiron Samarqand shahri may oyining boshida yangi sivilizatsiyalar chorrahasiga aylandi. Bu yerda Osiyo taraqqiyot banki (OTB) Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishi o'tkazilishi Prezidentimizning mamlakatni xalqaro moliyaviy va siyosiy muloqotning asosiy markazlaridan biriga aylantirishga qaratilgan izchil siyosatining amaliy ifodasidir.



shunday falsafaga sodiq, ya'ni iqtisodiy o'sish inson hayotini yaxshilagandagina haqiqiy ma'no kasb etadi.

Yig'ilish doirasida umumiy qiymati 12,5 milliard dollarlik "O'zbekiston – OTB 2030-yilgacha" yangi hamkorlik dasturi imzolanganini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu hujjat infratuzilma, davlat boshqaruvi islohotlari, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va inson kapitalini rivojlantirishni qamrab olgan batafsil ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"dir.

Prezidentimiz ushbu nufuzli forumda so'zlagan nutqida bank bilan hamkorlikning to'rtta strategik ustuvor yo'nalishini belgilab berdi. Ilgari surilgan muhim tashabbuslar esa nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining uzoq muddatli o'sishi uchun asos yaratib, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Partiyamiz va uning parlamentdagi deputatlari ochiq bozor iqtisodiyoti, xususiy tashabbuslarni va mamlakatni global iqtisodiy makonga integratsiyalash tamoyillarini himoya qiladi. Shu munosabat bilan biz OTBning Samarqand forumini Yangi O'zbekiston dasturiy maqsadlarining jonli ifodasi, deb bilamiz.

Davlatimiz rahbari tashabbuslarining hayotga izchil tatbiq etilishi O'zbekistonning 2030-yilga borib iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini texnologik o'sish modeliga o'tkazgan holda daromadli o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirishiga imkon yaratadi. Mamlakatimiz bugun aynan shu ezgu maqsad yo'lida sobitqadam bo'lib bormoqda.

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
O'zLiDeP fraksiyasi rahbari.

QO‘SHILGAN QIYMAT ZANJIRI TO‘LIQ SHAKLLANISHI LOZIM

Mamlakatimizda 2016-yilda boshlangan Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar har jabhada o‘z samarasini bermog‘da. Xususan, xalq bilan samarali muloqot tizimi, uy-joy qurilishi, energetika ta‘minoti, tadbirkorlik muhiti, so‘z erkinligi, davlat xizmatlari ko‘rsatish kabi qator yo‘nalishlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Munosabat

Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sanoati ham iqtisodiyotning rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biridir. Jumladan, keyingi yillarda sohani rivojlantirishga qaratilayotgan alohida e’tibor natijasida ishlab chiqarish zanjirining uzviyligi ta‘minlandi. Bu borada “Xomashyodan – tayyor mahsulotgacha” tamoyili asosida terini qayta ishlashdan tortib undan qo‘shilgan qiymatli, raqobatbardosh va eksportbop tayyor mahsulotlar olishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim yaratildi.

Ahamiyatlisi, sohani rivojlantirishga doimiy ravishda e’tibor qaratib kelinmoqda. Xususan, joriy yilning 5-may kuni Prezidentimiz rahbarligida charm-poyabzal sanoatiga bag‘ishlangan taqdimot bo‘lib o‘tdi va unda sohaning bugungi holati muhokama qilinib, istiqboliga doir qator vazifalar belgilab berildi.

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda ushbu tarmoqni qo‘llab-quvvatlash

bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar muayyan natijalar bermog‘da. Ishlab chiqarish hajmi oshib, eksport ko‘rsatkichlari yaxshilanyapti. Joriy yilning dastlabki choragida 962 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o‘shish sur‘ati 25 foizdan oshgani bu yo‘nalishdagi ijobiy o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Biroq yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan raqamlar ortida yechimini kutayotgan qator tizimli muammolar ham mavjudligi alohida qayd etildi. Xususan, xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasining pastligi aytiladi. Shuningdek, mamlakatda teri va jun kabi xomashyo resurslari yetarli bo‘lishiga qaramay, ularning katta qismi hali ham to‘liq qiymat zanjiriga kiritilmagan.

Misol uchun, qo‘y va echki terisini qayta ishlash darajasi taxminan 30 foizni tashkil etsa, junni qayta ishlash ko‘rsatkichi atigi 15 foiz atrofida qolmoqda. Bu holat xomashyo, asosan, dastlabki shaklda eksport qilinib, yuqori qiymatli tayyor mahsulotga aylantirish imkoniyati to‘liq

ishga solinmayotganini anglatadi.

Natijada qo‘shilgan qiymat zanjiri to‘liq shakllanmay qolmoqda. Bu esa nafaqat sanoatning rivojlanish sur‘atiga, balki ish o‘rinlari yaratish, eksport hajmini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois xomashyoni chuqur qayta ishlashni rivojlantirish sanoat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

2030-yilga qadar ishlab chiqarishni 12 trillion so‘mga, eksportni esa 500 million dollarga yetkazish katta salohiyat va qat’iy yondashuvni talab etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun tarmoqni tubdan qayta ko‘rib chiqish, zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish zarur.

Shu nuqtayi nazaridan, ixtisoslashtirilgan sanoat zonalarini tashkil etish tashabbusi bu borada ayni muddao bo‘ldi. Toshkent viloyatining Ohangaron va Andijon viloyatining Shahrixon tumanlarida barpo etiladigan bunday zonalar ishlab chiqarish, logistika va kadrlar tayyorlashni bir nuqtada jamlash imkonini beradi. Ayniqsa, Ohangaronda ekologik talablarga



javob beradigan markazlashgan suv tozalash tizimining yaratilishi nafaqat samaradorlikni, balki barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Ko‘pchilikka yaxshi ma’lum, bu sohada xomashyo bazasini kengaytirish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Jumladan, qo‘shni davlatlardan teri import qilish, tadbirkorlar uchun “yagona darcha” tamoyilini joriy etish, transport xarajatlarini qisman qoplash kabi chora-tadbirlar ishlab chiqarishni barqaror xomashyo bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, terini yig‘ish va birlamchi qayta ishlash tizimini rivojlantirish orqali ichki resurslardan samarali foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Sirdaryo viloyatida junni qayta ishlash sohasida yirik sanoat majmuasini barpo etish rejasini tarmoq taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berishi kutilmoqda. Quvvati 30 ming tonna bo‘lgan ushbu loyiha amalga oshirilsa, xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulotgacha bo‘lgan uzluksiz texnologik zanjir yaratiladi. Bu esa nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki qo‘shilgan qiymatni bir necha barobar ko‘paytirishga hissa qo‘shadi.

Anna DOBRIX,
Oliy Majlis Senati a’zosi.

Innovatsiya

AGRAR SOHA ISTIQBOLI DRONLARGA HAM BOG‘LIQ

Qishloq xo‘jaligida so‘nggi yillarda keng qo‘llanilayotgan zamonaviy agrotexnologiyalar, innovatsion usullar ekinga ishlov berish borasidagi an’anaviy qarashlarni usullarni ham butkul o‘zgartirib yubormog‘da. Aytaylik, tomchilatib sug‘orish tizimi qo‘llanilgan maydonlarga jo‘yaklararo plastmassa quvurchalar yotqizilgan tufayli traktor va mexanizmlarni kiritib bo‘lmaydi. Bu esa agrar sohada agrodronlardan keng foydalanishni taqozo qilayotir.

Respublikamizda 2025-yil tomchilatib sug‘orish texnologiyasi 2,6 mln. gektar ekin maydonida joriy qilingani, bu ko‘rsatkich 2028-yilgacha 3,5 mln. gektarga yetkazilishini inobatga oladigan bo‘lsak, endilikda agrar soha istiqboli bevosita masofadan boshqariladigan qurilmalar – dronlarga bog‘liqligi oydinlashadi.

– Xitoy, AQSH, Germaniya, Shveysariya, Niderlandiya, Shvetsiya, Yaponiya singari davlatlarda allaqachon dronlardan foydalanishga o‘tilgan, yurtimizda ham bugungi kunda mazkur uchuvchisiz uchish qurilmalarini qo‘llashga kirishilmoqda, – deydi Qishloq xo‘jaligi vazirligining Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish va ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘limi boshlig‘i Sa’dulla Zaynabudinov. – Aslida, dron – tom ma’nodan mo‘jiza. Uning yordamida paykalling holatini havodan monitoring qilish, ayrim xizmatlarni ekinga ziyon yetkazmasdan muallaq holatda amalga oshirish mumkin.

Mutaxassisning e’tirofi etishicha, Prezidentimizning 2021-yil 24-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori respublikamizning agrar tarmoqda dronlardan foydalanishga katta turtki berdi. O’sha yili Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan kartografiya, monitoring hamda agrotexnika tadbirlari (o‘g‘it, urug‘ va dori vositalarini sepish) uchun jami 9 ta dron xarid qilinib, tajriba sifatida qo‘llash yo‘lga qo‘yildi.

Ilmii xulosalarga ko‘ra, yerlar va ekinlarning holatini, o‘simlik va tuproqdagi namlik miqdorini, ozuqa elementlari bilan ta’minlanganlik darajasini, kasallik va zararkundalarning mavjudligini aniqlashda bugun monitoring dronlaridan afzal texnikaning o‘zi yo‘q. Ham qulay, ham tezkor. Agro(sprey) dronlar esa arzon va beminnat dastiyorga aylangani sababli uning xizmatiga talab oshmoqda. Axir bu texnikalar ko‘magida suyuq va qattiq ko‘rinishdagi o‘g‘itlarni sepish, o‘simlikning kasallik va hasharotlariga qarshi ishlash mumkin.

– O‘tgan yili Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan jami 100 ta (50 ta monitoring va 50 ta sprej) dron xarid qilindi va bu texnikalar Xitoy texnologiyasiga ko‘ra chig‘it ekilgan 10 ming gektardan ziyod paxta maydonlarida yuqori natija ko‘rsatdi, – deydi vazirlik tizimida tashkil etilgan “Drone Service” korxonasi rahbari N. O‘rinov. – Bundan tashqari, “DJI”



kompaniyasidan 40 ta “T100” va 10 ta “T70” rusumli agrodronlarni ham oldik. “DJI” akademiyasida mutaxassislarni o‘qitishni ham yo‘lga qo‘ydi.

N. O‘rinovning so‘zlariga qaraganda agrodronlar qimmat, o‘rtacha bahosi 35 ming dollar. Ammo bugun yurtimiz dalarida xorijning 100 – 150 ming dollardan baland narxdagi traktorlari ishlayotganini e’tiborga oladigan bo‘lsak, zamonaviy uskunaning narxi ko‘pam yuqori ko‘rinmaydi. Qolaversa, agrodron yordamida 1 gektar maydondagi g‘ozani defoliatsiya yoki desikatsiya qilish tadbiri misolida traktor bilan solishtirsak, suv 10 baravar, yonilg‘i 5 karra kam sarflanishi ayon bo‘ladi. Eng asosiysi, ushbu agrotexnika tadbiri o‘n chandon tez bajarilib, hosildorlik 20 foizgacha oshadi.

Qishloq xo‘jaligi vazirligi ma’lumotiga ko‘ra, joriy yil respublika bo‘yicha 300 ming gektar (jami paxtaozorning 34 foizi) maydonda “Shinjon” usulida paxta yetishtiriladi. Bu paykallarga traktorlar va turli mexanizmlar bilan ishlov berishning imkoniyati cheklangan. Chunki sug‘orish va oziqlantirish qo‘shqatorlar orasidagi quvvurlar ko‘magida amalga oshiriladi. Demak, fermer uchun eng maqbul yo‘l – dronni qo‘llash.

“Drone Service” korxonasi rahbarining aytishicha, “Shinjon” usulida parvarishlanayotgan paxta maydonlarini to‘liq qamrab olish uchun jami 120 dan ortiq so‘nggi rusumdagi agrodronlar va 50 dan ziyod mobil dronkomplekslari mavsumga hozirlangan.

Bugun agrodronlarga talab kundan-kunga oshayotgani tabiiy hol, albatta. Fermerlarni qo‘ya turing, dehqon xo‘jaliklari va tomorqachilar uchun kelgusida dron sotib olish foydali bo‘lishi tayin. Shu ma’noda, avvalo, dron xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, qolaversa, uni mahalliyashtirish ishlarini jadallashtirish zarur. Ana shunda uskunaning narxi, ishlov berish xarajati ham keskin pasayadi.

Abdunabi ALIQULOV
 (“Xalq so‘zi”).


SHAXSIY MA’LUMOTLAR VA MULK HIMOYASI QONUN BILAN MUSTAHKAMLANMOQDA

Bugun dunyo taraqqiyotini jahon axborot tarmog‘i – Internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Global tarmoq, tom ma’noda, jamiyat va davlat taraqqiyotining eng muhim drayveri, iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy o‘zgarishlar, integratsiyani ta’minlovchi strategik kuchga aylandi. Ayniqsa, uning axborot tarqatish va ma’lumotlar izlash imkoniyati tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada kengayib bormog‘da. Buning isbotini dunyo bo‘ylab internet foydalanuvchilari soni 6 milliarddan oshgani va bu jami aholining taxminan to‘rtidan uch qismini qamrab olganidan ham ko‘rish mumkin.

Deputat sharhi

Afsuski, “onlayn” tarmoq rivojlangani sari u bilan bog‘liq xavf-xatarlar ham kuchayib boryapti. Ya’ni internet va ijtimoiy tarmoqlardan g‘arazli maqsadlarda foydalanayotganlar kun sayin ko‘paymoqda. Hatto tarmoqni qing‘ir yo‘l bilan daromad manbaiga aylantirgan uyushgan jinoyi guruhlar ham paydo bo‘ldi. Ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har soniyada 14 kishi yoki kuniga bir million shaxs kiberjinoyat qurboniga aylanmoqda. Ko‘rilayotgan zarar miqdori esa katta mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotiga teng keladigan trillionlab dollarni tashkil etyapti.

O‘zbekiston ham bunday muammolardan xoli emas. Yurtimizda internetdan foydalanuvchilar soni 31 milliondan oshgani, ularning 14 millioni ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanayotgani yaxshi, albatta. Lekin shu bilan birga, internetga bog‘liq xavflar soni ham keskin oshib boryapti. Jumladan, oxirgi besh yilda xalqaro tarmoq bilan bog‘liq jinoyatlar 68 baravar ko‘paygan. Kiberjinoyatlar bo‘yicha murojaatlar soni esa 48 baravar



oshgan. Umuman, internet olamidagi qing‘irliklar soni jami jinoyatlarning 50 foizini tashkil etmoqda.

Ayniqsa, bugun kibernamkonda fuqarolar mol-mulki va shaxsiy ma’lumotlariga nisbatan tajovuz borgan sari kuchaymoqda. Birgina o‘tgan yili jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar miqdori 2 trillion so‘mdan oshdi. Bu milliy qonunchilikka internet bilan bog‘liq jinoyatlar uchun jazo choralarini kuchaytirish, kiberjinoyatlarning yangi shakllari uchun javobgarlik belgilash bo‘yicha yangi normalarni kiritish vaqti kelganini ko‘rsatyapti. Chunki 2019-yilda internet orqali 18 turdagi jinoyat sodir etilgan bo‘lsa, bugun ular soni 60 tadan oshdi.

O‘rganishlardan ma’lum bo‘ldiki, vazirlik va idoralar, korxona hamda tashkilotlar global tarmoq bilan bog‘liq jinoyatlarga qarshi o‘zlari bilganicha kurash olib boryapti va xavfsizlik choralarini yetarli darajada ta’minlay olmayapti. Sababi qonunchilikda bo‘shliqlar bor edi. Ana

shular e’tiborga olinib, kiberxavfsizlikni ta’minlash va raqamli muhitda sodir etilayotgan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi Qonunchilik palatasining shu yil 28-aprel kuni bo‘lib o‘tgan majlisida ko‘rib chiqildi va birinchi o‘qishda qabul qilindi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa qonun hujjatlariga bank kartalari, elektron va kripto-hamyonlar hamda ularni boshqarish imkonini beruvchi ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda boshqa shaxslarga berganlik uchun ma’muriy va jinoyi javobgarlik belgilanmoqda.

Shuningdek, SIM-kartalar, shaxsiy akkauntlar va identifikatsiya vositalarini boshqa shaxslarga noqonuniy berish yoki ularidan foydalanish holatlari uchun ham javobgarlik choralari kuchaytirilyapti. Shu bilan birga, muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganlik uchun ma’muriy javobgarlik belgilanmoqda. Bank va to‘lov tashkilotlarida axborot xavfsizligi talablariga rioya etilmaganini sababli yuzaga kelgan zararni banklar va to‘lov tashkilotlari tomonidan qoplash mexanizmi joriy qilinayotir.

Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar uchun jazo choralari kuchaytirilib, tergov organlariga bank ma’lumotlarini taqdim qilishning aniq muddatlarini belgilash hamda ushbu talablarni buzganlik uchun javobgarlik

choralarini qat’iyashtirish taklif etilmoqda.

Chunki so‘nggi yillarda pullar, asosan, o‘zga shaxslarning nomiga rasmiylashtirilgan bank kartalari yoki elektron hamyonlardan o‘g‘irlanyapti. Ya’ni bank kartalari bilan bog‘liq talon-to‘rojlarning 95 foizidan ortig‘i aynan jinoyatchiga tegishli bo‘lmagan kartalar orqali sodir etilmoqda. Noqonuniy o‘zlashtirilgan pullar esa kripto-aktivlarga aylantirilib, boshqalarning nomiga ochilgan elektron hamyonlar orqali xorijga chiqarib yuborilyapti. Bu jinoyatlar fosh bo‘lishini yanada qiyinlashtirib, aybdorlar jazodan qutulib qolishiga yordam berayotir.

Shu bilan birga, boshqa shaxslarning SIM-karta va shaxsiy akkauntidan foydalanib, jinoyat sodir etish holatlari ham ortib boryapti. Internetda abonent raqami, shaxsiy ma’lumotlar savdosi bilan shug‘ullanuvchi 10 dan ortiq kanal va guruhlar aniqlangan. “One-ID”, “MY-ID” kabi tizimlar orqali davlat xizmatlaridan foydalanish tobora kengayib borayotgani e’tiborga olinsa, shaxsiy akkauntlarni himoya qilish va ularidan foydalanishni qonun bilan tartibga solish bugun muhim masalaga aylandi.

Ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish tizimi deputatlar tomonidan muntazam monitoring qilib borilmoqda va bu masala doimo parlament nazoratida bo‘ladi.

Zuhra MIRG‘OZIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Innovatsion rivojlanish va axborot
texnologiyalari masalalari qo‘mitasi
raisi o‘rinbosari.

TOSHKENT MINTAQANING MOLIYAVIY XABIGA AYLANMOQDA

Katta islohotlar, odatda, bir kunda paydo bo‘lmaydi. Ular dastlab g‘oya sifatida tug‘iladi, vaqt o‘tishi bilan shakllanadi va nihoyat aniq qarorga aylanadi. Toshkent xalqaro moliya markazi (XMM)ni tashkil etish tashabbusi ham aynan shunday yo‘lni bosib o‘tdi, desak, ayni haqiqat.

Islohot

2018-yilning iyulida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga tashrfi davomida Ostona xalqaro moliya markazi (AIFC) faoliyati bilan yaqindan tanishuvi bu yo‘nalishdagi dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi. O‘shandayoq mamlakatimiz rahbari ko‘nglida “Nega bunday markaz O‘zbekistonda ham bo‘lmagisi kerak?” degan tabiiy savol paydo bo‘lgani, shubhasiz. Vaqt o‘tishi bilan ushbu g‘oya aniq strategiyaga aylandi. 2024-yil iyul oyida o‘tkazilgan Xorijiy investorlar kengashining ikkinchi yalpi yig‘ilishida kapital bozorini rivojlantirish va xalqaro talablarga javob beradigan infratuzilma – Xalqaro moliya markazini yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari har bir taklif va loyiha bo‘yicha alohida “Yo‘l xaritasi” qabul qilinishi va ular shaxsiy nazoratda bo‘lishini ta’kidladi.

Shu ma’noda, Prezidentimizning 2026-yil 30-martdagi “Toshkent xalqaro moliya markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakat iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim qadam va xalqaro kapital bozoriga tashlangan ochiq chaqiriqdir.

Kapital uchun global kurash

Bugun dunyoda pul, investitsiyalar va iqtidorli mutaxassislar uchun haqiqiy raqobat kurashi kechmoqda. Mamlakatlar

biznes uchun qulay maxsus moliyaviy “maydonchalar” yaratib, sarmoya jalb qilmoqda.

Deylik, nega biznes sahradagi Dubayni tanlaydi? Nega kompaniyalar Kayman orollarida ro‘yxatdan o‘tadi? Yoki nega investorlar yonginamizdagi Ostonaaga keladi? Javob oddiy: qonunlar tushunarli, investitsiyalar himoyalangan, biznes yuritishga to‘siq kam. Garchi kapital vatansiz bo‘lsa-da, qoidalariga qattiq bog‘langan, shu bois u ishonch bor joyni tanlaydi.

Prezidentimiz aytganidek, ko‘plab xalqaro kompaniyalar mintaqaviy xavf-xatarlarni baholab, yangi bozorlarni o‘rganishni boshlagan. Bu biz uchun tarixiy imkoniyat. Shu vaziyatda fursatni boy bermasdan, xalqaro moliya kompaniyalarni o‘zimizga tezroq jalb qilishimiz shart.

Toshkent xalqaro moliya markazi ayni shu maqsadga qaratilgan shunchaki islohot emas, balki institutsional sakrashdir. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2030-yilgacha moliya markazi iqtisodiyotga qo‘shimcha 20 – 25 mlrd. dollar sarmoya jalb etishi, yalpi ichki mahsulot o‘shishiga har yili qo‘shimcha 1 foizgacha hissa qo‘shishi mumkin. Ayni paytda 15 minggacha yangi yuqori malakali ish o‘rni yaratish va 10 ming nafar mutaxassis malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Ochig‘i, postsovet hududida to‘liq shakllangan xalqaro moliyaviy markaz modeli kam uchraydi. Amalda bunday

tizim to‘liq ishlayotgan yagona maskan Ostona markazidir. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, “AIFC” orqali 6 mlrd. dollar sarmoya jalb qilindi. Bu – avvalgi yidagiga nisbatan qariyb ikki barobar ko‘p.

Yil davomida markazda 1400 dan ortiq yangi kompaniyalar ro‘yxatdan o‘tgan. Bu esa “AIFC”ning xalqaro biznes uchun jozibador maydonga aylanayotganini ko‘rsatadi. Markaz qoshidagi birja orqali esa deyarli 5 mlrd. dollarlik kapital jalb qilindi. Bu moliyaviy infratuzilmaning faol ishlayotganidan dalolat beradi.

Binobarin, bunday markazlar, odatda, oddiy milliy qonunlar bilan ishlay olmaydi. Shuning uchun u alohida konstitutsiyaviy qonun darajasida tartibga solinadigan maxsus huquqiy rejimga ega bo‘ladi. Markaz hududida fuqarolik va tijorat huquqi, moliya va bank qoidolari, soliq va mehnat munosabatlari, ma’lumotlar himoyasini ta’minlash kabi yo‘nalishlar uchun alohida qoidalar amal qiladi.

Erkinlik bor, lekin mustaqillik yo‘q

Hujjat bilan tanishganlarning ayrimlarida savol tug‘ilyapti: XMM davlat ichidagi davlatmi?

Mutlaqo yo‘q. Ha, markazda alohida huquqiy rejim – o‘z sudi va arbitraj, maxsus soliq tizimi bo‘ladi. Shu sababli, u “alohida hudud”dek tuyuladi. Lekin u suveren emas, alohida davlat ham emas, qonunlar O‘zbekiston tomonidan tasdiqlanadi, to‘liq nazorat esa davlat qo‘lida bo‘ladi. Soddaroq aytganda, O‘zbekiston hududida maxsus maydon yaratiladi. U yerdagi o‘yin qoidalari xalqaro standartlarga mos bo‘ladi.

Bir qarashda XMM ofshorlarga ham o‘xshab ketadi. Lekin ular orasida katta

farq bor. XMMda real biznes yuritiladi, investitsiyalar jalb etiladi, qat’iy nazorat va shaffoflik yaratilib, xalqaro standartlar qo‘llaniladi. Ofshor zonalarida esa ko‘pincha soliq optimizatsiya qilinadi, kompaniyalar aksariyat “qog‘ozda” faoliyat ko‘rsatadi, yuqori maxfiylikka rioya etiladi, ba’zan shubhali operatsiyalar amalga oshiriladi. Shuning uchun XMMga o‘shish vositasi, ofshorga esa qo‘proq soliqdan qochish instrumenti sifatida qaraladi.

Ta’kidlash kerakki, global kapitalni jalb qilish uchun xalqaro moliya markazlariga ham soliq va boshqa imtiyozlar beriladi. Zero, kapital doimo soliq past, byurokratiya kam, qoidalar aniq bo‘lgan joyga oqadi.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi: nega bunday imtiyozlar mahalliy biznesga ham berilmaydi?

Agar imtiyozlar barchaga teng taqdim etilsa, byudjet tushumlari kamayishi mumkin. Yana aynan shu imtiyozlar faqat muayyan hudud yoki sektorlarga berilsa, kompaniyalar soliq yukini kamaytirish uchun shu joylarga “ko‘chib o‘tish”ga oshiqadi. Zero, imtiyozlar maqsad emas, vosita. Agar ular iqtisodiy faollik yaratmasa, ular shunchaki byudjetdan voz kechishga aylanadi. Ayni chog‘da mahalliy biznes ham e’tibordan chetda emasligini, erkin iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari yaratilayotgani, subsidiyalr ajratilayotganini esdan chiqarmaslik zarur.



O‘shish drayveri yoki xatar manbai?

XMM milliy iqtisodiyotga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Xorijiy investitsiyalar oqimi oshadi, moliyaviy sektor rivojlanadi, YIM va soliq tushumlari o’sadi, yuqori maoshli ish o‘rinlari yaratiladi, biznes muhit yaxshilanadi, O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi tezlashadi.

Ayni vaqtda “uning xatari tomonlari ham bor”, deyishmog‘da ekspertlar. Ularning fikricha, iqtisodiyotning tashqi kapitalga bog‘liqligi oshadi, bozor “pufaklari” paydo bo‘ladi, tengsizlik kuchayadi, iqtisodiyot “isitma”ga tushadi, noqonuniy operatsiyalar xavfi paydo bo‘lib, real sektor zaiflashishi mumkin.

Demak, xalqaro moliya markazlari bir vaqtning o‘zida ham imkoniyat, ham xatar manbai hisoblanadi. Bu yerda boshqaruv sifati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Kuchli institutlar sharoitida ular iqtisodiy o‘shish drayveriga xizmat qiladi, aks holda esa mavjud muammolarni yanada kuchaytirishi mumkin.

XMM lokal moliyaviy institutlarga ikki xil ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, yangi texnologiyalar keladi, xizmat sifati oshadi, raqobat kuchayadi. Boshqa tomondan, mijozlar XMMga o‘tishi, eng yaxshi kadrlar ketishi, zaif kompaniyalarning bozordan chiqishi ehtimoli paydo bo‘ladi. Sodda aytganda, XMM “filtr” vazifasini o‘taydi: kuchilarni kuchaytiradi, tayyor bo‘lmaganlarni siqib chiqaradi. Pirovardida mijozlar yutadi.

Yana savol tug‘ilishi mumkin: yaratilayotgan markazdan nimalarni kutaypmiz?

Qulay va shaffof moliyaviy muhit yaratish, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, kapital bozorini rivojlantirish, xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyalashuvni. Shuningdek, bank va sug‘urta xizmatlari, islomiy moliya, fintex va raqamli aktivlar, elektron tijorat kabi yo‘nalishlarni rivojlantirishni.

Bu markaz atrofida auditorlik, konsalting, yuridik xizmatlar, komplayens kabi professional xizmatlar ekotizimi ham shakllanadi.

Hademay, bo‘y cho‘zajak xalqaro moliya markazi Toshkent va mamlakatimiz uchun juda yarashqli hamda strategik ahamiyatga ega. Yurtimizning boy tabiiy resurslari, iqtisodiy salohiyati va islohotlari esa bu borada katta ustunlik yaratmoqda.

Ishonch bilan ilk qadamni tashladik, bu bizning bo‘lg‘usi raqobatga rostdana tayyor ekanimizni, Toshkentni mintaqaviy moliyaviy xabga aylantira olishimizni ko‘rsatmoqda. Bu ishonch, institutlar va haqiqiy bozor madaniyatini qurish, demakdir.

Asqar HAYDAROV,
iqtisodiy sharhlovchi.

MILLAT MA NAVIYATINING TIRIK MANBAI

Davlatimiz rahbarining Farg'ona viloyatiga tashrifi doirasida ilgari surgan tashabbuslari mamlakatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea bo'ldi. Ayniqsa, Qo'qon adabiy muhiti haqidagi muhohazalari nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng jamoatchilik uchun ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, o'zbek adabiyoti tarixida Qo'qon adabiy muhitining o'rni beqiyos. Bu zaminda 300 dan ziyod sho'ir va adiblar yashab, ijod qilgan. Shunday ulkan adabiy merosga ega shaharning YUNESKOning "Adabiyot shahri" maqomiga munosib ekani haqidagi fikr, avvalo, tarixiy haqiqatga tayanadi. Bu e'tirof, bir tomondan, milliy adabiyotimizga berilgan yuksak baho bo'lsa, ikkinchi tomondan, oldimizga katta mas'uliyat ham qo'yadi. Chunki Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Qo'qonning boy adabiy merosi haligacha to'liq tizimli o'rganilmagan, ko'plab manbalar, devonlar, tazkiralari, tarixiy hujjatlar chuqur tadqiqotlarni kutib turibdi.

Nuqtai nazar

So'z san'ati tarixida noyob hodisa

Qo'qon adabiy muhitining tarixiy-badiiy tavsifi ko'plab manbalarda o'z ifodasini topgan. Bular sirasiga Fazliyi Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkisasi, "Umamoma" asari, Mushrif Isfaragiyning "Shohnomai Nusratpayom", Hakimxon To'raning "Muntaxab ul-tavorix", Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi", Dilshodi Barnoning "Tarixi muhojiron", Mirza Olim Mushrifning "Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin", Mulla Olim Maxdum Hojining "Tarixi Turkiston" kabi asarlari kiradi.

Qo'qon adabiy muhiti o'zbek adabiyoti tarixidagi eng yorqin va semahsul adabiy hodisalardan biridir. XVII-XVIII asrlarda shakllangan mazkur muhit o'z atrofida yuzlab ijod ahlini birlashtirgan, milliy so'z san'atimiz taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan ulkan madaniy maktab hisoblanadi. Bu muhitning tashakkuli Amir Umarxon – Amiriy nomi bilan chambarchas bog'liq. U davlat arbobi sifatida mamlakat ravnaqi uchun xizmat qilgan bo'lsa, sho'ir va ma'rifatparvar sifatida adabiyot taraqqiyotiga rahnamolik qildi.

Mutaxassislar Amiriy davri adabiyotini XV asrda Husayn Boyqaro rahnamoligida shakllangan Hirot adabiy muhiti bilan qiyoslaydi. Amiriy adabiy siyosatining eng muhim jihati – ijod ahlini birlashtirish, ular uchun erkin muhit yaratish, badiiy so'zga homiylik qilish bo'lgan.

Qo'qon adabiy muhitining o'ziga xos jihatlari talaygina. Bularga o'zbek tilida tamsiliy va epik janrlardagi asarlarning yaratilishi, asarlarning ko'chirilishi va rag'batlantirilishi, fors-tojik hamda turkiy she'riyat uslublari sintezining amalga oshishi, zullisonaynlik, tazkirachilik an'analarning tiklanishi, kitobat va tarjimachilikning jonlanishi, ayollar she'riyatining paydo bo'lishi shular jumlasidan.

Qo'qon adabiy muhitining



taraqqiyotida Amiriy bilan bir qatorda, Mohlaroyim Nodiraning ham xizmat beqiyos. Nodira nafaqat yirik lirik shoira, balki butun bir adabiy harakatning ma'naviy rahnamosi edi. Amiriy va Nodira tomonidan yaratilgan muhitning eng diqqatga sazovor jihati ayol ijodkorlarga keng imkoniyat berilgan bilan izohlanadi. Bu Buxoro va Xiva adabiy muhitlarida deyarli kuzatilmaydi. Natijada Qo'qonda Uvaysiy, Nodira, Dilshodi Barno, Mahzuna, Anbar otin kabi atoqli shoirlar yetishib chiqqan. Mazkur holat Qo'qon adabiy muhiti nafaqat milliy, balki jahon adabiyoti tarixi nuqtayi nazaridan ham fenomen hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Tahlil qilinmagan adabiy manbalar

Amiriy asos solgan adabiy maktabning an'ana va tamoyillari ba'zan mavjud tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy voqelik ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchraganiga qaramay keyingi asrlarda ham o'z ta'sirini saqlab qoldi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Muhyi, Nisbatiy, Qoriy, G'urbat, Yoriy, Nusrat, Pisandiy, Rojii, Nayyiriy, Mirzo Xo'qandiy, Mahmud Hakim Yayfoni, Muhsiniy, Shaydoi Ho'qandiy, Mavlaviy Yo'ldosh, Firoqiy, Charxiy kabi ijodkorlar Qo'qon adabiy an'analari yangi tarixiy sharoitda davom ettirdi.

Muqimiy va Furqat ijodida milliy uyg'onish g'oyalari, mustamlakachilikka qarshi ruh, ma'rifatparvarlik g'oyalari kuchli aks etdi. Bu davrda Qo'qon adabiy muhiti nafaqat estetik, balki ijtimoiy fikr markaziga ham aylandi.

Adabiyotshunoslikda Qo'qon adabiy muhiti haqida dastlab Sadriddin Ayniy "Namunai adabiyoti tojik" tazkirasida ma'lumot berib o'tadi. Unda aytilishicha, Amiriy iste'dodli shoirgina bo'lib qolmay ahli shuaro va fuzaloning murabbiysi

ham edi. Alisher Navoiydan keyin Turkistonda rivojlanishdan to'xtagan turkiy she'riyat ayni Amir Umarxon davrida ikkinchi marta taraqqiyot cho'qqisiga chiqdi. Vadud Mahmud esa Umarxonni "...Sharq turk she'rining ikkinchi oltun davri boshlig'i", deb aytadi.

Fitratinig qayd etishicha, "Umarxon zamonida saroy atrofida bir ko'b shoirlar yig'ildilar. Bular orasida Fazliyi, Hoziq, Xijlatxon kabi san'atda yuqori darajada turganlari bor edi". Shunga ko'ra O. Sharafiddinov "Farg'ona xonlari adabiy-madaniy harakatchilikka temuriylar traditsiyasini tiriltirishga urindilar", deya ta'kidlagan.

Aytish joizki, Qo'qon adabiy muhiti haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ular hali to'liq emas. A. Qayumov o'zining "Qo'qon adabiy

boy qo'lyozma xazinalaridan biri. Kelajakda bu kitoblarni ilmiy o'rganib, nashr etish maqsadga muvofiq, albatta.

Prezidentimiz tomonidan "Qo'qon adabiy muhiti antologiyasi" va elektron platformasini yaratish tashabbusining ilgari surilishi aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan, desak, mubolag'a emas. Ushbu loyiha adabiy merosni tizimlashtiradi, raqamlashtirish orqali keng ommaga yetkazadi, ilmiy tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, qolaversa, yosh tadqiqotchilarni sohaga jalb etishda muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyaning so'nmas asosi

Bugungi axborot xurujlari davrida inson ongi va tafakkuri turli ta'sirlarga duch kelmoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar orqali tarqalayotgan noto'g'ri hamda chalkash ma'lumotlar yoshlar ongida murakkab qarashlarni shakllantirishi mumkin. Ana shunday sharoitda kitob mutolaasi insonni chuqur fikrlashga, voqelikni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatadi. Kitob – faqat ma'lumot manbai emas, balki shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi, uning

“Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Farg'ona viloyatida 100 ta namunaviy mahalla kutubxonasi tashkil etilishi, “book-cafe”lar uchun imtiyozlar berilishi juda muhim qaror. Bu maskanlar kitob o'qish joyi bo'lishi bilan birga, ijodiy muloqot, fikr almashish, ma'naviy kamolot maydoniga aylanadi. Bunday muhitda voyaga yetgan yoshlar nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli shaxslar bo'lib shakllanadi.”

muhiti" nomli tadqiqotida bu muhit namoyandalari hayoti hamda ijodini ilk marotaba har tomonlama keng va chuqur tadqiq qiladi.

Istiqlol yillarida Qo'qon adabiy muhitining Amiriy, Nodira, Uvaysiy, Muhsiniy, Muhayyir, Firoqiy, Charxiy kabi shoirlari ijodiga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borildi. Lekin hali o'rganilmagan qo'lyozmalar, nashr etilmagan devonlar, tahlil qilinmagan adabiy manbalar ko'p. Mazkur manbalar yurtimizda birinchi bo'lib Qo'qonda 1961-yilda tashkil etilgan adabiyot muzeyida saqlanmoqda. Muzeyda 12 mingdan ortiq eksponatlar mavjud bo'lib, ularning 2 mingdan ko'pi noyob qo'lyozmalardir. Muzey – O'zbekistondagi eng

dunyoqarashini kengaytiruvchi muhim tarbiya vositasi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Farg'ona viloyatida 100 ta

Qo'qon adabiy muhiti o'rganishga va targ'ib etishga e'tibor kuchaytirilishi bu adabiy muhit vakillarining ijod namunalari jahon bo'ylab keng tarqalishiga zamin yaratadi hamda bu yerga sayohatchilar oqimi ko'payadi. Prezidentimiz tashabbusi bu sa'y-harakatlarga davlat miqyosida yangi sur'at bag'ishlamogda. Universitetda faoliyat boshlayotgan ilmiy-tadqiqot markazlari, yaratilajak elektron platformalar, yangi nashrlar bu jarayonning amaliy ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

Qo'qon adabiy muhiti faqat o'tmish xotirasi emas, bu – millat ma'naviyatining tirik manbai, yangi avlod uchun ilhom maktabi. Yangi O'zbekistonning ma'naviy taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor. Ilgari surilgan tashabbuslar esa ana shu poydevor ustida Yangi Renessans binosini barpo etishga qaratilgani bilan g'oyat ahamiyatli.

Zebo QOBILOVA,

Qo'qon universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor.

Xushxabar

Muhim diagnostika vositasi mahalliyashtirilmoqda

Yurtimizda qoramollarda uchraydigan tuberkulyozni aniqlashga mo'ljallangan diagnostikumning milliy shtammi tayyorlanib, ishlab chiqarishga kirishildi.



Bunga Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining katta ilmiy xodimi, professor Gulmurod Mamadullayev rahbarligidagi olimlar guruhi umumiy qiymati 970 mln. so'mlik "Qishloq xo'jaligi hayvonlari tuberkulyozini diagnostika qilish uchun PPD-tuberkulin preparatini ishlab

chiqarish va tijoratlashtirish" loyihasi doirasida erishildi. – Davlatimiz rahbari har gal ishlab chiqarish korxonalari faoliyati bilan tanishar ekan, import hajmini keskin qisqartirish hamda mahalliyashtirish orqali eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini, bu borada olimlar tashabbuskor bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Biz ana shu talabga javoban ish boshladik va nihoyat natija bo'y ko'rsatdi, – deydi Gulmurod Mamadullayev. – Ayni paytda respublikamizda 14 mln. boshga yaqin qoramollar mavjudligini, tuberkulyozni tashxislash uchun kamida 10 mln. doza diagnostikum talab etilishini e'tiborga olsak, vositani mahalliy sharoitda ishlab chiqarish nechog'li muhim ekanii oydinlashadi.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, tuberkulyoz – xavfli kasallik, uni erta tashxislash xastalikning ko'payishiga, hayvondan odamlarga yuqishiga barham beradi. O'zbekistonga har yili bu vositaning 1 dozasi 2800 – 3000 so'mdan import qilinmoqda. PPD-tuberkulin diagnostikumini o'zimizda ishlab chiqarish esa bundan ikki yarim marta arzon tushib, 1 dozaning tannarxi 1100 so'mdan oshmasligi hisob-kitob qilingan.

Bu yil 1 mln. doza import o'rnini bosuvchi PPD-tuberkulin diagnostikumi ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Agar bu vosita ko'proq tayyorlanib, importdan to'liq voz kechilsa, yiliga kamida 7 milliard so'mdan ortiq davlat mablag'i tejalishi mumkin.

"Xalq so'zi".



Sport

PARAPLAN ISHQIBOZLARI URGUTDA

Samarqand viloyati Turizm boshqarmasi hamda Urgut tumani hokimligi hamkorligida tumanning so'lim maskanlaridan biri – Andak mahallasi tog' yonbag'rida Xalqaro paraplan festivali bo'lib o'tmoqda.



Uning doirasida Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiya davlatlaridan 40 nafardan ziyod tajribali sportchilar hamda paraplan ishqibozlari hududga tashrif buyurdi. Ular nafaqat musobaqalarda ishtirok etmoqda, balki o'zaro tajriba almashish, yangi yo'nalishlar va texnik imkoniyatlarni muhokama qilish orqali sohaning rivojiga ham hissa qo'shmoqda.

Ayni kunlarda musobaqalar yuqori ruh va keskin raqobat ostida davom etmoqda. Ishitirokchilar betakror tog'li hududlarda parvoz qilib, havodagi mahorat, aniqlik va jasoratni talab etuvchi chiqishlar orqali o'z salohiyatini ko'rsataypti. Paraplan shoirlari esa tomoshabinlar uchun haqiqiy estetik zavq bag'ishlab, osmon bag'ridagi rang-barang manzaralar orqali festivalga alohida joziba qo'shmoqda.

Tabiat va sport uyg'unlashgan ushbu hududning qulay tabiiy-iqlim sharoiti – barqaror shamol yo'nalishlari, keng va ochiq landshaftlar, tog' relyefining o'ziga xos tuzilishi paraplan sportini rivojlantirish uchun nihoyatda mos. Bu esa kelgusida Urgutni Markaziy Osiyodagi yetakchi paraplan markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV
(**"Xalq so'zi"**).

Sadriddin Ayniy muzeyi qachon zamonaviy qiyofa kasb etadi?

“Soktari “Yangi O'zbekiston” qiyofasidagi mahallaga aylanadi”, degan xabardan bu ko'hna manzilda yashovchilarning boshi ko'kka yetdi. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan viloyatdagi 35 ta mahalla qatori Soktari ham aholining istiqomat qilishi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun namunali go'shaga aylantirilayotganidan quvonmay bo'ladimi?!

Taassuf

– Hududimizda 6400 dan ziyod aholi yashaydi, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Xudoyberdi Ismatov. – Qarorga muvofiq, bizga ham 5 milliard so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan. Bu sarmoyaga 5 kilometr masofadagi yo'lni asfalt qilish, kichik bog' barpo etish, hududimizdagi bolalar va o'smirlar sport maktabi filiali binosini ta'mirlab, zamonaviy shart-sharoitlar yaratish kabi ishlarni bajarish rejalashtirilmoqda.

G'ijduvon tumandagi Soktari qishlog'i boy tarixiga ega. Bu yerdagi osoriyatqilar, shu zamindan yetishib chiqqan fozil insonlar, olimu shoirlar haqida uzoq so'zlash mumkin. Shulardan biri – o'zbek va tojik adabiyotining zabardast vakili Sadriddin Ayniy.

– Aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan bu keng ko'lami yumushlardan behad xursandmiz,



– deydi mahalla keksalar maslahat kengashi raisi Nizomiddin Fozilov. – Ammo “Sadriddin Ayniy muzeyi qachon zamonaviy qiyofada barpo etilar ekan?” degan savol bizni anchadan beri o'ylantiradi. Axir yoshlarimizni madaniy merosimiz, qadriyatlarimiz, tariximizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladigan bunday maskanni hamma joyda ham uchratavermaysiz.

Katta hayotiy tajribaga ega

Nizomiddin akaning bu mavzudan so'z ochishi bejiz emas. 1878-yilda Soktarida tug'ilib o'sgan, "Qullar", "Doxunda", "Eski maktab", "Sudxo'rning o'limi" kabi o'lmas badiiy asarlar yaratgan Sadriddin Ayniy O'rta Osiyo xalqlarining tarixi,

hayoti, an'analari, boy ma'naviy merosini chuqur tadqiq qilgan sharqshunos olim ham bo'lgan. Uning Rudakiy, Bedil, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlar ijodiga oid qator maqola va risolalari ham bor. Adibning asarlari jahonning ko'plab tillariga o'g'irilgan. Taniqli fransuz shoiri Lui

Aragon “Sudxo'rning o'limi” povestini tarjima qilar ekan, “Sadriddin Ayniy o'zining bu o'lmas asari bilan dunyo adabiyotining buyuk namoyandalari Balzak, Shekspi, Gyote qatorida turadi”, deya e'tirof etgan edi.

– Shunday ulug' allomaning qishloqdoshi bo'lganimizdan faxrlanamiz, – deydi mehnat faxriysi Olim G'aybullayev. – Yana ikki yildan so'ng Sadriddin Ayniy tavallud

topganiga 150-yil to'ladi. To'yga to'yona deganlaridek, yozuvchi, olim, jamoat arbobining muzeyi uchun yangi bino barpo etilsa, ayni muddao bo'lardi.

Adibning asarlarini mutolaa qilgan kishi borki, u tug'ilib o'sgan qishloqni ko'rgisi, o'sha davr muhitini his etgisi keladi. Ammo muzeyning madaniy meros obyekti analgan qadimiy masjidda joylashgani taajjublanarli. To'g'ri, adib tug'ilib o'sgan uy saqlanib qolmagan. Lekin masjid yonida 1978-yilda S. Ayniyning 100-yilligi munosabati bilan adib byusti o'rnatilgan, yozuvchi qahramonlari nomi bilan ataladigan kitob, savdo do'konlari, choyxona ochilgan.

– Ammo zamona zayli bilan ular xususiyashtirilgan, hozir qarovsiz ahvolda. Shular o'rnida muzey uchun sharqona uslubda, to'rt-besh xonadan iborat bino qurilsa, yaxshi bo'lardi-ku, – deydi yozuvchining qishloqdoshlari.

Darvoqe, “Xalq so'zi”da bundan salkam uch yilcha muqaddam e'lon qilingan “Dunyo tan olgan adibni yoshlarimiz nega bilishmaydi?” sarlavhali maqolada bu haqda batafsil fikr yuritilgan.

– Shundan so'ng viloyat

arxitektorlari, mutasaddilar Soktariga kelib, ahvolni atroflicha o'rganishdi, – deydi Nizomiddin Fozilov. – Takliflarimizni bildirdik, natijada muzey yangi binosining loyihasi yaratildi. Qolaversa, yaqinda viloyat hokimi boshchiligidagi bir guruh mas'ullar Soktarida aholi vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Shunda biz Sadriddin Ayniy muzeyi uchun yangi bino qurish masalasini ham o'rtaga tashladik. Qaniydi, shu inshootning moliyaviy manbasi, quruvchisi aniqlansayu qurilish ishlariga kirishilsa...

Aytmoqchimizki, adib tavalludining 150-yilligi nishonlanadigan 2028-yilgacha shu maqsad ro'yobga chiqsa, eksponatlarni yanada boyitish, “Ayniy izdoshlari”, “Istiqlol va Soktari” kabi mavzularda ko'rgazmalar tashkil etish, osoriyatqilarni davlat standartlariga mos tarzda saqlash imkoniyati yuzaga kelgan bo'lardi.

Soktarilik yurtidoshlarimizning “Sadriddin Ayniy muzeyi qachon zamonaviy qiyofa kasb etadi?” degan savoliga mutasaddilardan javob kutib qolamiz.

Istam IBROHIMOV
(**"Xalq so'zi"**).

13 – 15-may kunlari Toshkentda “TextileExpo Uzbekistan” to'qimachilik va tikuvchilik sanoati ko'rgazmasi bo'lib o'tadi.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-542. 23 207 nusxada bosildi. Bahmi – 2 taqab. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulliciga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismatov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir **R. Bobojonov.**
Musahhih **Sh. Mashrabboyev.**

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 03.00 Topshirildi – 03.10

1 2 3 4 5 6